

REZYUME. Maqolada Taxiatosh sohilbo'yi va suv o'simliklarini tasniflashning asosiy tushunchalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ushbu o'simliklarning ekologik ahamiyati, yashash sharoitlari va tasniflash mezonlari tahlil qilinadi. Metodologik yondashuv sifatida geobotanik va ekologik tavsiflash usullari qo'llanilib, suv ekotizimlariga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Taxiatosh sohilbo'yi va suv o'simliklari atrof-muhit muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot xulosalarida bu o'simliklarni muhofaza qilish va kelajak tadqiqotlar yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются основные концепции классификации прибрежной и водной растительности Тахияташа. В исследовании анализируется экологическое значение этих растений, условия их обитания и критерии классификации. В качестве методологического подхода использованы методы геоботанического и экологического описания, изучены факторы, влияющие на водные экосистемы. Результаты показывают, что прибрежные и водные растения в Тахияташе играют важную роль в поддержании экологического баланса. В выводах исследования даются рекомендации по охране этих растений и направления дальнейших исследований.

SUMMARY. The article discusses the basic concepts of classification of coastal and aquatic vegetation. The study analyzes the environmental significance of these plants, their habitat conditions and classification criteria. Methods of geobotanical and ecological description were used as a methodological approach, and factors influencing aquatic ecosystems were studied. The results indicate that riparian and aquatic plants in Tahiyatash play an important role in maintaining the ecological balance. The study findings provide recommendations for the protection of these plants and directions for further research.

Geografiya

QASHQADARYO VILOYATIDA MINERAL RESURSLARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI VA TABIATGA SALBIY TA'SIRI MASALALARI

Sh.A.Sultonov – dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Tayanch so'zlar: sanoat, tabiiy resurs, mineral, tog', hudud, tabiiy kompleks, sanoat, xomashyo, kon, qidiruv, foydali qazilma, neftgaz, oltin, gips, slanets.

Ключевые слова: промышленность, природный ресурс, минерал, гора, территория, природный комплекс, отрасль, сырье, рудник, разведка, полезное ископаемое, нефть и газ, золото, гипс, сланец.

Key words: industry, natural resource, mineral, mountain, area, natural complex, industry, raw material, mine, exploration, mineral, oil and gas, gold, gypsum, shale.

Kirish. Sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotining butun jarayonini belgilab beradigan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri kon qazib olish majmuasi hisoblanadi. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosining dolzarbligi davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Hozirgi zamonaviy texnologik o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishini boshqarishning tuzilmasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ko'p yillik geologik qidiruv ishlari Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan turli mineral xomashyo zaxiralarining mavjudligidan dalolat beradi. Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalarni tabiiy gaz, gaz kondensati, neft, osh va kaliy tuzlari, qurilish materiallari tashkil etadi [1]. Shuningdek, marganetsning hamda toshko'mirning uncha katta bo'lmagan zaxiralari aniqlangan. Bundan tashqari, geologik qidiruv ishlari natijasida polimetallar, yonuvchi slanets va fosforit ma'danlashuvining namoyon bo'lishi aniqlangan.

Asosiy qism. Qashqadaryo hududi geologik xususiyatlariga ko'ra Buxoro-Xiva neftgazli hududi (oblasti) ga kiradi. Olib borilgan geologik qidiruv ishlari natijasida bu yerda neft va gazning 45 dan ortiq konlari, 14 ta neft va gazning istiqbolli tuzilmalari aniqlandi. Hozirgi paytda qidiruv-geologik ishlar o'tkazilgan umumiy maydon 7174 km² ni tashkil etadi va bu maydonda 700ga yaqin quduqlar qazilgan.

Neftgaz qazib olish 1960-yillarning boshlarida Shimoliy Muborak, Janubiy Muborak, Odamtosh, Gumbuloq,

Pachkamar, Qizilbayroq kabi yirik gaz konlarining, Sho'rtepa, Qoraxitoy kabi gaz-neft konlarining va O'rtabuloq, Toshli, Sharqiy Karael, Boyburak, Ko'kdumaloq va boshqa yirik zahirali neftgaz konlarining o'zlashtirilishi bilan boshlandi. Beshkent shahridan janubda Beshkent, undan g'arbda Qamashi gaz konlari joylashgan. Qarshi cho'lining janubi-g'arbida Kultak, Alan, Pomiq, Zevarda kabi gaz, gazokondensat va neftgazli konlar mavjud. Gaz va gazokondensat konlarining eng ser zahiralisi Sho'rtan konidir. Shuningdek, mazkur maydonlarning Turkmaniston Respublikasi va Buxoro viloyati hududlari bilan tutash joylarda Dengizko'l, Ko'kdumaloq singari bir qancha neftgazli konlari mashhur. Ko'pdan buyon uglevodorod qazib olinayotgan konlar qatoriga yaqin davrlarda ishga tushirilgan va ishlashga tayyorlangan Karim, Xo'jahayron, Sho'rtepa, Qoraqum, Qizilrabot, Qorabayir va boshqa konlar qo'shildi, bu konlar geologiyaga oid adabiyotlarda Buxoro-Xiva neftgazli mintaq (provinsiya) sifatida ma'lum bo'lgan havzaning janubiy bo'lagidir. Qo'ng'irtog'dan shimoli g'arbdagi Qoraxitoy koni, Chiroqchi tumani hududidagi Uvada va Saricha konlari mavjud [5, 8, 9, 10].

Hududimizdagi O'rtabuloq, Toshli, Sharqiy Karael, Boyterak singari sanoat ahamiyatiga molik neft konlaridan yoqilg'i xomashyosi qazib olinmoqda, ulardan ayrimlari esa foydalanishga tayyorlanmoqda.

Qashqadaryo viloyati zaminidagi tabiiy gaz asosan oltingugurtli va oz miqdorda kam oltingugurtli konlardan iborat bo'lib, oltingugurt ajratib olish uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda viloyat hududidagi

Zevarda, Kultak, Pomuq. Alan, kam oltingugurtli O'rtabuloq, Dengizko'l, Qandim yuqori oltingugurtli gaz konlari Muborak gazni qayta ishlash zavodi uchun asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi.

Viloyatdagi tabiiy gaz manbaalarining etan moddasiga boyligi kimyoviy moddalar olish, polimer va plastmassa tayyorlash uchun Sho'rtan gazkimyo majmuasini bunyod etish imkonini berdi. Bu sanoat korxonasi nafaqat mamlakatimizda, balki Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) hududida ham yagona bo'lgan bu o'lgan sanoat kompleksi yiliga 125 million tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz, 130 ming tonna yengil kondensat 4,2 milliard metr kub gaz mahsuloti va 4 ming tonna oltingugurt ishlab chiqaradi. Shuningdek, mamlakatimizda paxta sanoati, plastmassa, plyonka, kabel tayyorlash qadoqlashda ishlatiladigan mahsulotlar ishlab chiqarishning keskin o'sishiga imkon berdi.

Qashqadaryo viloyatida xorijiy firmalar ishtirokida yirik sanoat korxonalari biri bo'lgan Ko'kdumaloq konini ishga tushirilishi gazni kompleks tayyorlovchi qurilma, neftni tayyorlash qurilmasi neft qatlamlariga suvli havdovchi nasos stansiyasi kabi moslamalar qurilib, kondan qazib olinayotgan neftni va gazokondensatni Farg'ona va Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlariga yuborilishi mamlakatimiz neft mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda asosiy rol o'ynamoqda [2, 3, 4].

Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan ko'mir konlari yo'q. Viloyatning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini Chakmonkuydi tog'laridagi Vori va Zarmas qishloqlari orasidagi Yakkabog' toshko'mir koni qisman qondirishi mumkin.

Dehqonobod tumanining janubi-sharqida Dehqonobod, Xo'jarna, Qizilcha, Dardara, Kann va boshqa konlarda yonuvchi slanetslarning namoyon bo'lishi aniqlangan. Ammo ularning sanoat ahamiyati hozircha aniq emas.

Ma'danli foydali qazilmalar. Qashqadaryo viloyati hududida rangli metallar ma'danlari toifasiga mansub bo'lgan marganetslarning zahiralari Qoratepa tog'larining janubi-g'arbiy yonbag'irlaridagi Davtosh va Qizilbayroq konlarida (Chiroqchi tumani) topilgan. Ammo marganets ma'danlarining uncha katta bo'lmagan bu konlari sanoat ahamiyatiga ega emas. Davtosh konining zahirasi 0,8 million tonnani tashkil etadi, ma'dandagi marganetsning miqdori 16,8 %. Konda marganets ma'danini ochiq usulda qazib olish mumkin [7, 8].

Qoratepa tog'larining janubiy yonbag'irida tabiatda kam uchraydigan vismut rudali konidan qoramum ma'dan (ruda) belgisi topilganligi e'tiborlidir.

Ma'dansiz foydali qazilmalar. Viloyat hududida osh va kaliy tuzlarining zahirasi ancha katta. Hisor provinsiyasidagi Dehqonobod tuzli havzasi (Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlari) Boybichakon, Hamkon va boshqa tuzli strukturalarni o'z ichiga oladi. Bu yerda Boybichakon va Tepaquton osh tuzining juda yirik konlari aniqlangan. Butun havza doirasida tuz qatlamlarining qalinligi 200-600 metrni tashkil etadi. Boybichakon osh tuzi konida (Qamashi tumani) tuzli qatlamlar yer yuzasidan 600-1000 metr chuqurliklarda joylashgan. Mahsuldor qatlamning qalinligi 240 metr. NaCl ning miqdori 94,56 %. Osh tuzi shuningdek, Tepaquton kaliy tuzli konida ham mavjudligi aniqlangan. Bu yerda osh tuzining zahirasi 6,1 million tonnani tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati ulushiga kaliy tuzlarining O'zbekistonda bashoratlashlangan zaxiralari-

ning 70% ga yaqini va balansdagi zahiralarning qariyb 100% i to'g'ri keladi. (Экономический потенциал., 1982).

Kaliy xomashyosi Dehqonobod tumanidagi Tepaquton konidan yopiq usulda qazib olinadi. Loyihalashtirilgan quvvat yilliga 700 ming tonna xomashyoni qazib olishga mo'ljallangan. Qayta ishlash majmuasida shu miqdordagi xom ashyodan yiliga 200 ming tonna kaliy o'g'iti ishlab chiqariladi. Mahsulotning 110 ming tonnasi mamlakat ehtiyoji uchun ishlatiladi, 90 ming tonnasi esa eksport qilinadi.

Tepaquton kaliy tuzlari koni negizida Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi investitsion loyiha asosida amalga oshirildi. Zavodning asosiy tarkibiy qismlari qayta ishlash majmuasi va tog'-kon majmualarini hukumat tendir komissiyasining qarori asosida qayta ishlash majmuasini "SITIK" (Xitoy) kompaniyasi bilan, tog'-kon majmuasini «ЗУМК Инженеринг» (Rossiya kompaniyasi bilan shartnoma tuzish belgilandi).

Tuzlarni kompleks qayta ishlash bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni yo'l-yo'lakay qazib olish imkonini beradi.

Hisor tizmasining janubi g'arbiy tarmoqlari doirasida Dehqonobod tumanida fosfor konlarining mavjudligi aniqlangan. Fosforit konlari ochiq usulda ekspluatatsiya qilinishi mumkin. Bu konlardagi ma'danda R₂O₅ning miqdori 6%.

Geologik qidiruv ishlari natijasida Qoratepa tog'larining yonbag'irlarida, Chiroqchi tumanis pegmatitning Lolabuloq koni aniqlangan. Bu yerda, shuningdek, Dovtosh va uning sharqda davomi bo'lgan Qizilbayroq marganets konlari joylashgan.

Qashqadaryo viloyati hududi turli qurilish materiallari (dolomit, ohaktosh, keramzit)ga ju boy. Bu yerda Bodomzor, Iskana, Sevaz, Tomchata, Makrid, Xazornava, Birkunlik va boshqa marmar konlari bor [7, 11]. Bu konlardan xilma-xil tovlanuvchi marmar qazib olinadi. Marmar konlarini xomashyosi Kitob va Makrid toshga ishlov berish kombinatlarida marmar bloklari va maydalangan uvoqlarini ishlab chiqarishda foydalanilmoqda.

Bentonitli gillar Dehqonobod konida va Qarshi shahar yaqinidagi Qo'ng'irtovda qazib olinadi. Dolomitli ohaktoshning zaxiralari ham ancha katta bo'lib, Dehqonobod va Pachkamar konlarida ayniqsa, batafsil o'rganilgan. Hozirgi paytda bu konlarning dolomitli ohaktoshlari devorbop toshlar va o'tga chidamli xomashyo uchun foydalanilmoqda. Bu konlar mahalliy ehtiyojdan tashqari Samarqand va Toshkent chinni zavodlariga ham xom-ashyo yetkazib bermoqda.

Ohaktoshning Zarafshon tizmasi janubiy tarmoqlaridagi Qaynar II va Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlaridagi Langar konlari aniqlangan bo'lgan Kitob tumanidagi Qoratepa aniqlangan ohaktoshlar (zahirasi 215 ming tonna) sement xomashyosi sifatida foydalanish mumkin. Ganch albastr xomashyosi bo'lgan gipsning yirik zahirasi Pachkamar, Langar, Oloviddin, Qalqama, Maymanoqtov, Kosontov kabi konlarda to'plangan. Qurilish materiali sifatida gips Tepaquton va Langar konlarida qazib olinishi mumkin, lekin hozirgi paytga qadar har ikkala konning ham ohaktoshlaridan foydalanilmaydi.

Qashqadaryo viloyatida qurilish uchun zarur bo'lgan qum shag'al va pishiq g'isht tayyorlashga zarur bo'lgan tuproq grunt zaxiralari (shag'al, qum va soz tuproqlar) juda katta. Hozirgi paytda viloyatda va mamlakatimizning

boshqa hududlarining ehtiyoji uchun foydalanilayotgan eng yirik Tanxoz qum-shag'al koni ba'zasida Tanxoz shag'al saralash zavodi mahsulot bermoqda.

Chiroqchi tumanida yirik donador qumning Chiyal koni beton va qurilish ishlari uchun katta miqdorda xomashyo berishi mumkin [8, 9]. Tabiiy, shu jumladan, mineral resurslardan foydalanishning geoeologik oqibatlar ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy oqibatlarga tayyor va yarim tayyor mahsulot, elektr va issiqlik energiyasi va boshqa mahsulotlar yaratish kiradi. Salbiy oqibatlarga esa: atrof muhitning ifloslanishi; tabiiy resurslarning tugab qolishi; tabiiy landshaftlar tuzilmasining buzilishi; biologik xilma-xillikning kamayishi; o'simlik qoplamining buzilishi va cho'llanish kiradi.

Qashqadaryo viloyati mineral resurslarini xo'jalik ahamiyatiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:

– Birinchi guruhni gaz qazib olish tashkil etadi. Qazib olinayotgan gaz nafaqat mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalaridagina emas, balki qo'shni mamlakatlarni ham gaz bilan ta'minlashda muhim.

– Ikkinchi guruhga neft, kelajakda osh tuzi, kaliy tuzi, neft-kimy o tarmoqlari uchun kerak bo'lgan mineral resurslar ishlab chiqarish kiradi.

– Uchinchi guruhni esa qurilish materiallari (marmar, g'isht tayyorlash uchun xomashyo, shag'al, qum, mergel,

gips va boshqalar) tashkil etadi. Bu mineral resurslar asosida viloyatda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab Qarshi cho'lini o'zlashtirish munosabati bilan yirik qurilish industriyasi vujudga keldi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Qashqadaryo viloyatining mineral resurslaridan foydalanish tabiiy tizimlarning bir butunligini buzilishi va texnogen omillar ta'sirida o'zgarayotgan maydonlarni kengayishiga olib kelmoqda. Bu yerda atrof muhitga antropogen (inson omili) ta'sir tirik organizmlar yashash tarzlari og'irlashishi va hududni geografik tuzilmalarining barcha komponentlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli viloyatda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy tizimlarni o'z holicha saqlab qolish hozirgi kunni dolzarb muammolaridan biridir.

Qashqadaryo viloyati mineral xomashyo resurslariga boy bo'lib, uni qazib chiqarish, qayta ishlashni rivojlantirishda ekologik omilni ham e'tiborga olish zarur. Hozirgi ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish xarakterini aniqlashning zamonaviy yondashuvidagi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik natijalarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Tog'-kon sanoati ishlab chiqarishiga innovatsion texnologiyalarni jalb etish, atrof-muhitga texnogen ta'sirni kamaytirish, aholini muntazam ish bilan ta'minlash va iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish kelajakda mustahkam rivojlanish poydevorini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Abdullayev S.I., Jovliyeva F.R., Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geoeologik oqibatlar. "O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materallari 2021-yil 19-may. 148-150-b.

2. Faizullaev M.A., Nurmatov A.U., Khujakulov S.U. Economic geographical characteristics of the development of industrial networks of Kashadarya region. // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. -P. 125-134.

3. Faizullaev M.A. Characteristics of agriculture in Uzbekistan in the years of independence. European science review, 2015, 3 (4), 67-69.

4. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклни шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.

5. Султонов Ш.А., Навотова Д.И., Алиева Д.И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари. // Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. 2020. – P. 12-15.

7. Минеральные ресурсы Кашкадарьинской области. Электронный источник. URL. <http://uza.uz/oz/politics/prezident> (дата обращения 20.12.2019).

8. Ёқилғи-энергетика тармоғини ривожлантириш бўлими томонидан амалга оширилган ишлар. Elektron manbaa. <https://mininnovation.uz/uz/activities/yoqilg-i-energetika> – tarmog'ini – rivojlantirish – bo'limi - tomonidan-amalga oshirilgan-ishlar (murojat sanasi 06.04.2020 yil).

9. Sultonov Sh.A., Navotova D.I. O'zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690-b. 2024-yil. <http://www.iupr.ru>, ISSN 2225-1545.

10. Sultonov Sh.A., Mavlonova D.N., Boboqulova Z.B. Foydali qazilmalarning sanoat turlarini o'rganishga doir ma'lumotlarni qisqacha tahlil qilish. Экономика и социум №1(128)-2 2025, 454-459 betlar, 2025-yil, www.iupr.ru, ISSN 2225-1545

11. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog'li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.

REZYUME. Maqolada Qashqadaryo viloyati mineral resurslaridan foydalanishning geografik jihatlar va tabiatga salbiy ta'siri masalalariga doir ma'lumotlarni qisqacha tahlil qilingan va ular keltirib chiqarish mumkin bo'lgan salbiy omillar xususida mulohazalar qilingan va tegishli xulosalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье кратко анализируются сведения о географических аспектах использования минеральных ресурсов Кашкадарьинской области и их негативном влиянии на природу, высказываются соображения о возможных негативных факторах, которые они могут вызывать, и делаются соответствующие выводы.

SUMMARY. The article briefly analyzes information on the geographical aspects of the use of mineral resources in the Kashkadarya region and their negative impact on nature, makes observations about the negative factors they may cause, and draws relevant conclusions.